ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

MUROD MUHAMMAD DO‘ST “LOLAZOR” ROMANIDA TOPONIMLAR

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti A.K.Xamidov

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi Murod Muhammad Do‘st “Lolazor” romani misolida asarlarda ishlatilgan toponimlar lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil etilgan. Muallif toponimlarning faqatgina geografik emas, balki madaniy, tarixiy va mafkuraviy qatlamlarga ega bo‘lgan birliklar sifatida ahamiyatini ko‘rsatadi. Asarda takrorlanmagan 100 ga yaqin toponimlar tahlili orqali ularning xalq tafakkuri, ijtimoiy-siyosiy voqelik va davr ruhiyati bilan bevosita bog‘liqligi aniqlanadi. Toponimlar antroposentrik yondashuv asosida inson dunyoqarashining shakllanishi va badiiy ifodasida tutgan o‘rni bilan izohlanadi. Shuningdek, toponimlar tarixiy-hududiy jihatdan 17 ta guruhga ajratilib o‘rganiladi. Maqola Murod Muhammad Do‘st ijodini lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi va o‘zbek badiiy matnshunosligida toponimlarning badiiy-funktsional yukini chuqurroq anglashga yo‘naltirilgan.

Tayanch tushunchalar: asar, “Lolazor” romani, giografik, tarixiy, madaniy, lingvakulturologiya, badiiy tahlil, ijtimoiy omil, siyosiy omil, hayotiy va ijodiy faoliyat, mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar.

Annotatsiya:

В данной статье на примере романа «Лолазор» известного узбекского писателя Мурода Мухаммада Дўста проводится анализ топонимов с лингвокультурологической точки зрения. Автор показывает значимость топонимов не только как географических названий, но и как единиц, обладающих культурным, историческим и идеологическим содержанием. Через анализ около 100 уникальных топонимов в романе определяется их прямая связь с народным мышлением, социально-политической реальностью и духом времени. Топонимы интерпретируются с антропоцентрической точки зрения как элементы, формирующие мировоззрение человека и его художественное выражение. Также топонимы классифицируются на 17 историко-территориальных групп. Статья служит основой для лингвокультурологического анализа творчества Мурода Мухаммада Дўста и направлена на более глубокое понимание художественно-функциональной нагрузки топонимов в узбекской художественной текстологии.

Ключевые слова: произведение, роман «Лолазор», географический, исторический, культурный, лингвокультурология, художественный анализ, социальный фактор, политический фактор, жизненная и творческая деятельность, идеология, социально-политические и экономические изменения.

Annotation:

This article analyzes toponyms from a linguoculturological perspective based on the novel *Lolazor* by renowned Uzbek writer Murod Muhammad Do‘st. The author highlights the significance of toponyms not only as geographic names but also as units with cultural, historical, and ideological dimensions. Through the analysis of nearly 100 unique toponyms in the novel, their direct connection to the people’s worldview, socio-political realities, and the spirit of the era is identified. The toponyms are interpreted from an anthropocentric perspective, emphasizing their role in shaping human perception and their artistic expression. Additionally, the toponyms are categorized into 17 historical-territorial groups. The article provides a foundation for the linguoculturological analysis of Murod

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Muhammad Do‘st’s literary work and contributes to a deeper understanding of the artistic and functional load of toponyms in Uzbek literary textology.

Keywords: literary work, *Lolazor* novel, geographic, historical, cultural, linguoculturology, literary analysis, social factor, political factor, life and creative activity, ideology, socio-political and economic changes.

Murod Muhammad Do‘stning ijodi asosan XX asrning ikkinchi yarmida, O‘zbekiston mustaqillik davrida rivojlangan. Shu bois, uning asarlarida mustaqil O‘zbekistonning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlari, shuningdek, o‘zbek xalqining madaniyati va tarixiy merosi asosiy ahamiyatga ega. Murod Muhammad Do‘st o‘z asarlarida xalqning o‘ziga xos urf-odatlarini, an’analarini va tarixini aks ettiradi. Ushbu jarayonda toponimlarning roli kata. Chunki ular nafaqat geografik, balki madaniy va tarixiy xotiralarni saqlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Toponimlar – bu faqatgina joy nomlari emas, balki ular ma’lum bir joyning madaniy va tarixiy merosini, xalqning dunyoqarashini, qadriyatlarini aks ettiruvchi tildagi birliklardir.

Toponim – geografik obyektlar, ya’ni joy ma’nolarining atab qo‘yilgan nomlar. Muayyan bir hududda yashaydigan xalqlarning tarixi, etnografiyasini aks ettiradi, uning tili va madaniyatini o‘zida mujassam qiladi1. Kichik asarlarning deyarli barchasida toponimlar uchraydi. Toponimlarni qamragan hududining hajmiga ko‘ra makrotoponimlar va mikrotoponimlarga2 ajratish mumkin.

Murod Muhammad Do‘stning asarida toponimlar nafaqat geografik joylarni bildiradi, balki o‘sha joylar bilan bog‘liq tarixiy va madaniy tajribani o‘quvchiga yetkazadi. Shuning uchun, toponimlarni tahlil qilishda lingvokulturologik nuqtayi nazar juda muhimdir. Bunday tahlil, birinchi navbatda, ijtimoiy va siyosiy omillarni hisobga olishni taqozo etadi.

Murod Muhammad Do‘st asarlaridagi toponimlarning tabiatini anglash uchun, avvalo, ijodkor tug‘ilib o‘sgan joy, ijodkor yashagan davr mafkurasi, uning hayotiy va ijodiy faoliyati kechgan hudud va kishilik jamiyatining davralarini inobatga olish kerak. Lingvokulturologiyaning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u antroposentrik qarashlarga asoslanishidadir. Antroposentrik qarashlar zamirida insonni har jihatdan tadqiq qilish turadi. Badiiy asar tahlili amalga oshirilish jarayonida , dastlab ijodkorning psixologik, sotsial, mafkuraviy dunyoqarashi ham tahlil ostiga olinadi.

“Lolazor” romanida takrorlanmagan holda 100ta toponim qatnashgan. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan bunday birliklarni tahlil qilish ma’lum o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Lingvokulturoogik birliklarni tadqiqi qilishda davr muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, har bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar joy nomlarining ham o‘zgarib turishiga sabab bo‘ladi. Bunda misol sifatida qanday mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlarning yuz berganligi har bir ijodkorning asarida aniq akas etib turadi. Bunday birliklarni davr, tarixiy-hududiy aloqadorlik nuqtayi nazaridan quyidagicha guruhlash mumkin:

1)O‘zbekiston hududida joylashgan tarixiy-geografik nomlar: Bulduruq, O‘rtaqo‘rg‘on, Galatepa, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona, Toshkent, Baxmal, Do‘rmon, Andijon, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Kattaqo‘rg‘on, Qamashi, O‘rta Chirchiq, Boysun, Urganch, Xiva, G‘ijduvon, Karmana, Namangan, O‘zbekiston, Farg‘ona, Oqtosh, Qo‘shko‘pir, Jizzax, Regar, Chiroqchi, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Qashqadaryo, Koson, Mo‘ynoq, Chorqo‘rg‘on, Qo‘qon, Tomdi, Pop, To‘rtko‘l;

[1] Каримов С. Бўриев С. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент, Фан, 2006. –Б. 6.

[2] Бегматов Э., Орипов У. Микротопоним тушунчаси ҳақида //Ўзбек тили ваадабиёти. – № 3. – Тошкент, 2000. – Б. 26.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

2) davlatlar nomlari: Afg‘on (Afg‘oniston ma’nosida), Qozoqiston (Qozog‘iston), Yaponiya, Chili, Panama, Turkmaniston, Bolgariya, Girmon (Germaniya), Indoneziya, Turkiya, Singapur;

3)qit’alar nomlari: Ovrupo(Yevropa), Afrika, Osiyo, Janubiy Amerika;

4) poytaxtlar nomlari: Xartum, Jakarta, Maskop(Moskva), Deli, Montevideo, Lissabon, Madrid, Vena, Berlin, Praga, Bern, Budapesht, Buxarest, Ostona, Jakarta, Istanbul, Qohira, Rim;

5) o‘lka nomlari: O‘rta Osiyo, Dashti Qipchoq, Arab diyori,

6) Turkiya tarkibidagi shaharlar: Izmir, Anqara;

7)Hamdo‘stlik davlatlari tarkibidagi joy nomlari: Qrim, Kavkaz, Boltiqbo‘yi, Azovbo‘yi, O‘sh, Chimkent, Turkiston, Chorjo‘y, Xo‘jand, Chimkent, Stalingrad;

8) hozirgi dunyo xaritasida mavjud bo‘lmagan joy nomlari: Pompey, Iskandariya;

9)Xitoydagi joy nomi: Harbin(Xarbin);

10)ergonimlar: GES, Avvalbek ustaxonasi, Simitxona, ZAGS, ChSB, Chorsu, Karvonsaroy, O‘rtaqo‘rg‘on vokzali;

11)minora nomi: Piza;

12)gidronimlar: Ganga, Nil, Darg‘om, Panama;

13)tog‘ nomlari: Bo‘ztog‘, Ko‘hiqof;

14)pleoronimlar: Niva , Jiguli;

15)bog‘oz va asosda shakllangan mahsulot nomi: Gavana;

16) Yevropadagi tarixiy joy nomlari: Veneysiya, Verona;

17) Bolgariya tarkibidagi joy nomlari: Karlsbad, Zlatni Pyassi (Bolgariyadagi kurort zona).

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Murod Muhammad Do‘st asarlarida toponimlar nafaqat geografik joylar, balki butun bir madaniyat, tarix va xalqning ruhini aks ettiruvchi elementlardir. Ular asarlarda zamonaviy ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan birga, o'tmishning tarixiy xotiralari hamda madaniy merosi haqida muhim ma’lumotlarni beradi. Lingvokulturologik tahlilning ahamiyati shundaki, u toponimlarning ichki ma’nolarini va ularning insoniyat hayoti bilan bog‘liqligini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu orqali, o‘qiruvchilar nafaqat geografik joylar, balki ularning tarixi, madaniyati va xalqning dunyoqarashi haqida ko‘proq bilib olishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов С. Бўриев С. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент, Фан, 2006. –Б. 6.

2. Бегматов Э., Орипов У. Микротопоним тушунчаси ҳақида //Ўзбек тили ва адабиёти. – № 3. – Тошкент, 2000. – Б. 26.

3. Xamidov A.K. O‘zbek tilshunosligida pragmalingvistikaning tadrijiy taraqqiyoti // Tamaddun nuri. . – № 11. – Тошкент, 2024. – Б. 134.

4. Xamidov A.K. M.M.Do‘st “Lolazor” romanida lakunarlik hodisasi // Tamaddun nuri. . – № 4. – Тошкент, 2024. – Б. 383.